O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
FARG'ONA VILOYATI
BOSHQARMASI

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy, Tel/Faks: 71-203-11-48, E-mail: fergexp@rambler.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Madmarov Qudrat Yaxiyadjanovich

Sana: 05-11-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

264478 - SONLI

Obyekt nomi: Mavjud qurilishi tugallanmagan 6 (olti) qavatli turar-joy binosini, 7 (yetti)chi qavatini qo‘shib qurish.	
Buyurtmachi:	ARTEON MCHJ
Bosh loyihachi:	"FARG`ONA SANOAT QURILISH LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender savdolari natijalari bo’yicha aniqlash
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	098092

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Qo`oqn shaxar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 22.05.2024 yildagi №1730405-176558-sonli ruhsatnomasi.

1.2. Farg`ona viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining 01.06.2024 yildagi №1730-1730405-189289-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.3. Buyurtmachi “ARTEON” MChJ tomonidan tasdiqlangan 2024 yildagi loyixa topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “ARTEON” MChJ hamda loyiha tashkiloti o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 12.09.2024 yildagi №17-sonli shartnoma.

1.5. Farg`ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 07.08.2024 yildagi №139314952-sonli xulosasi.

1.6. Mavjud binoning texnik holati bo`yicha “QURILISH LOYIHA EKSPERTIZA SINOV” MChJ tomonidan 11.10.2023 yilda berilgan №86-5-23/пш-SONLI texnik xulosa.

1.7. Muhandislik tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari, muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi va foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1.Loyiha tarkibiga ko‘ra elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha smeta hujjatlari.

2.2.Binoning energiya samaradorligi pasporti.

2.3.Mazkur obyektning Issiqlik texnik hisoboti.

2.4. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni - II-iqlim mintaqasiga tegishli.

Hududning zilzilaviyligi - 8 ball.

Qurilish maydonining zilzilaviyligi - 9 ball

Standart yuklar:

A) Shamol - 0,38 kPa (38 kgs/m2)

B) Qor - 0,5 kPa (50 kgs/m2)

Tashqi havoning xisobiy qish harorati - minus 12°C

Bosh rejada ushbu bosqichda mavjud 6-qavatlik turarjoy binosiga qo’shimcha 1-qavat qo’shish ko’zda tutilgan. Bino oldida avtoturargoh (shu jumladan nogironligi bor shaxslar uchun) loyihalangan.

Hududda va bino ichida PQ 266-sonli qarorga va ShNQ 2.07.02-24*ga asosan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va loyihalangan.

Arxitukturaviy yechimlari

Qo'qon shaxar Gishtli masjid mfy Qo'qon sadosi ro'znomasi ko'chasi 26a-uyda mavjud qurilishi tugallanmagan olti qavatli turar-joy binosini yettinchi qavatini qo'shib qurish» obyekti 7-qavatli, o'lchamlari bo'yicha to'g'ri to'trburchakli shaklidagi 53.7mx15.9m; qavat balandligi 3,0 m.

Binoda turar-joy xonalari, oshxona va sanuzellar ko'zda tutilgan.

Devorlar issiqlik izolyatsiyasi – GOST 9573-2012 bo’yicha qalinligi 80mm zichligi 125kg/m3 PJ-125 markali minvata, PVX kley va dyubel yordamida qatiriladi

Tashqi bezatish - shtukaturka va dekorativ shtukaturka “travertin” qilinadi.

Ichki bezatish ishlari buyurtmachi tomonidan berilgan aloqa xati va loyiha topshirig’iga asosan quruvchi tomonidan bajarilmaydi va foydalanishga “korobka” holatida topshiriladi.

Konstruktiv yechimlari

6 (olti) qavatlik binoning QMQ 2.01.03-19 3.1 jadvali bo’yicha 1.2.2 “b” band – “bog’lamali yoki rama bog’lamali” qilib loyihalangan.

Loyihada «Qurilish loyiha ekspertiza sinov» MChJ (licenziya №АЛ-002020) tomonidan amalga oshirilgan texnik ko’rikning ijobiy xulosasiga tayangan holda 1 (bir) qavat, yani 7 (yettinchi) qavat qo’shib qurilmoqda.

Binoning loyihalangan 1 (bir) qavati quyidagi konstruktiv elementlardan iborat:

Kolonnalar – B25 sinfli monolit temirbetondan, ko’ndalang kesimi 400x400mm

Yuk ko’taruvchi va bog’lovchi rigellar – B25 sinfli monolit temirbetondan, ko’ndalang kesimi 400x400mm

Devorlari – M100 markalik pishgan g’ishtdan M50 qorishmada yotqiziladi, qalinligi 380mm.

Orayopmalari – yig’ma yumaloq g’ovaklik temirbeton plitalar

Tomyopmasi – yog’och konstruksiyalik, qoplamasi profnastildan, qalinligi 0.5mm.

Binoning seysmik ta’sirlarga qarshi chora-tadbirlari QMQ 2.01.03-19 asosida ishlab chiqilgan

Binoning yong’inga qarshi chora-tadbirlari ShNQ 2.01.02-04* asosida ishlab chiqilgan

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh

batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.

- II-toifali energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoda mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.

Mavjud qurilishi tugallanmagan 6 (olti) qavatli turar-joy binosini, 7 (yetti)chi qavatini qo‘shib qurish uchun ishlab chiqilgan loyiha hujjatlari o‘rganib chiqilganligi borasida

Lokal ekspert xulosasi :

(Suv ta’minoti va suv oqova tarmoqlari)

Buyurtmachi – “Arteon” MCHJ

Loyiha tashkiloti - “Fargona Sanoat Kurilish Loyixa” MCHJ.

Loyiha bosh muxandisi – Akbarov.

Ekspert – Rozikov X.

Loyixa yechimlarini qisqacha mazmuni :

Sovuq suv tarmoqlari :

Sovuq suv tarmog‘ini tortish uchun PPR PN-10 quvurlaridan foydalanilgan.

Quvurlar ochiq va yopiq pol ostida tortilgan. Binoga kirish soni ikkita. Bino poydevoridan o‘tishida po‘lat gilzalar ichidan quvurlar o‘tkaziladi.

Cherdakdagi barcha quvurlar ARMOFLEKS trubkali qalinligi 19 mm bilan izolyatsiya qilingan. Binoga yetarli bosim xosil qilish uchun Q=3,1 m3/chas N=38 N=1,1kvt rusumli nasos o‘rnatilgan . Xar bir xonadonga suv ta’minotining kirish qismiga VCKM 20 rusumli suv xisoblagich o‘rnatilgan

Issiq suv tarmoqlari :

Issiq suv tarmog‘ini tortish uchun PPR PN-20 quvurlaridan foydalanilgan.

Issiq suv quyosh suv isitgichi orqali ta’minlangan. Quyosh nuri yetarli darajada isitib bera olmagan vaqtda elektr suv isitgichlar (Ariston) kabi suv isitgichlardan foydalanilgan.

Oqava suv tarmog‘i :

Sanitariya-texnik vositalardan oqava suvlar ochiq quvur tizimi orqali loyihalashtirilgan kanalizatsiya tarmoqlariga yo‘naltiriladi.

Ichki kanalizatsiya tarmog‘i GOST 22689-2001 bo‘yicha Ø50 va Ø100mmli bosimsiz polietelin quvurlardan foydalanilgan.

Buyurtmachini 17.07.2024 kungi xatiga asosan tashqi suv ta’minoti va kanalizatsiya tarmoqlarining loyixasi keyingi bosqichda ko‘zda tutilishi ma’lum qilingan

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ob`yektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Farg`ona viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining 01.06.2024 yildagi №1730-1730405-189289-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta'minoti “Farg`ona suv ta`minoti” MChJ tomonidan 19.06.2024 yilda berilgan №26271-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Gaz ta'minoti - “Hududgaz Farg`ona” GTF ning 22.06.2024 yildagi №076732-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Farg`ona filialining 03.06.2024 yildagi №1393-8-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1.Davlat ekologiya ekspertizasining 29.03.2024 yildagi 01-02/12-225-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga koʻra qoʻshimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **14 867 629 982** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

301 503 493 so'mga kamaytirilib, **14 566 126 489** soʻmni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **11 524 401 483** so'm

Asbob-uskunalar: **1 114 011 647** so'm

QQS: **1 516 609 575** so'm

6.1.Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga tuzatishlar va qoʻshimchalar kiritildi.

6.2.Ishchi loyiha ekspertiza koʻrigiga buyurtmachining texnologik, ichki muxandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.3.Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan koʻrib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil koʻrsatib oʻtilgan).

6.4. Buyurtmachi tomonidan quydagi obyekt jami boʻlib 14 867 629,982 ming soʻm taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga koʻra quydagi koʻrsatgichlar tavsiya etiladi:

Qurilish qiymati QQS siz - 12 638 413,130 ming soʻm
QQS 12% - 1 516 609,575 ming soʻm
Qurilish qiymati QQS bilan - 14 155 022,705 ming soʻm
Buyurtmachining xarajatlari - 411 103,784 ming soʻm
Jami obyekt qiymati QQS va
buyurtmachi xarajatlari bilan - 14 566 126,489 ming soʻm
Iqtisod qilingan mablagʻ - 301 503,493 ming soʻm
Qurilish-montaj ishlari - 11 524 401,483 ming soʻm
Asbob-uskunalar - 1 114 011,647 ming soʻm.

6.5.Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan koʻrib chiqilmagan.

6.6.Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi №579-sonli qarori 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7.Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini oʻtkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

6.8.Koʻrsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish toʻgʻrisida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyixa bo`yicha; “Fargʼona viloyati Qoʻqon shaxar Gʻishtli masjid MFY Qoʻqon sadosi roʻznomasi koʻchasi 26A-uy xududida “Mavjud qurilishi tugallanmagan 6 (olti) qavatli turar-joy binosini, 7 (yetti)chi qavatini qoʻshib qurish” ob`ekti, taqdim etilgan quyidagi texnikiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni - 605,68 m2;

Umumiy maydon - 6779,0 m2;

Yashash maydoni - 600.1 m2;

Qurilish hajmi - 1998,74 m3;

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNK 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

7.3. Ekspertiza tomonidan berilgan 27-12-2024-yil kungi 227878-sonli yig’ma ekspert xulosasi bekor qilindi.

Bosh ekspert: Islamov Bekzod Ravshan O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Bannobov Abrorjon Bahodir O‘g‘li, Rozikov Xasanjon Xoshimovich, Karimov Nizomjon Boboxanovich, Kasimov Mirzajon Abduraxmanovich, Mirzakarimov Akmal Abdillajanovich, Islamov Bekzod Ravshan O‘g‘li, Valijonov Abdulatif Abduraxim O‘g‘li